

NEMIS VA O'ZBEK TILIDAGI VAQT KONSEPTINING METAFORALASHUVI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7884131>

Bo'ronova Shahnoza Sadridin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikning metafora sohasiga bag'ishlangan bo'lib, unda nemis va o'zbek tillaridagi vaqt konseptini ifodalovchi metaroralar, ya'ni idioma, maqollar yoritiladi, nemis va o'zbek tillarida vaqt tushunchasining bir biridan qanday farqli va o'xshash jihatlari borligini ifodalash haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: fraza, frazeologizm, leksema, konsept, idioma, ekvivalentlik

PHRASEOLOGISMS EXPRESSING THE CONCEPT OF TIME IN GERMAN AND
UZBEK

Bo'ronova Shahnoza Sadridin qizi

Abstract: This article is devoted to the field of phraseology of linguistics, it describes the phraseology, idioms, proverbs that express the concept of time in German and Uzbek, and discusses the Uzbek alternatives of German phraseological units.

Keywords: phrase, phraseology, lexeme, concept, idiom, equivalence

МЕТАФОРИЧЕСКОЕ СОЧЕТАНИЕ КОНЦЕПТА ВРЕМЕНИ В НЕМЕЦКОМ И
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.

Боронова — дочь Шахнозы Садриддина

Аннотация: Данная статья посвящена области метафор лингвистики, в ней рассматриваются метафоры, т.е. идиомы, пословицы, выражающие понятие времени в немецком и узбекском языках, и говорится об узбекских альтернативах немецких фразеологизмов.

Ключевые слова: словосочетание, фразеологизм, лексема, концепт, фразеологизм, эквивалентность.

KIRISH

Tilshunoslikda lug'at boyligining boyib borishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. Tilning lug'at tarkibi asosan so'zlardan iborat. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosi frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning

belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi.

ADABIYOTLAR TAHILI VA METODOLOGIYA

Vaqt bizning voqeligimizning asosiy qismidir, hayot va o'lim undan kelib chiqadi. Biz yashagan vaqtni tabiiy va tanish deb bilamiz, lekin aslida vaqt nima ekanligini tasvirlash qiyin. Bu haqiqatan ham mavjudmi yoki bu bizning tasavvurimiz mahsulidirmi? Vaqtni qanday tasavvur qila olasiz? Umuman vaqt deganda nima tushuniladi? Dudenda u "lahzalar ketma-ketligi" sifatida ta'riflangan (Duden 1999: 4599). Vaqt tez o'tishi yoki sekinlashishi mumkin bunda vaqt jadvali yoki vaqt poyezdi haqida gapiradi. Bu oqim, sezgi, matematik o'zgaruvchi yoki oddiygina devordagi soat ko'rsatadigan narsa sifatida tasvirlangan. Turli odamlar vaqtga har xil munosabatda bo'lishadi: ba'zilarida vaqt yetarli bo'lmasa, boshqalarda shunchalik ko'p vaqt borki, ular u bilan nima qilishni bilmaydilar. Agar bir madaniyatda u pul bilan baholanadigan qimmatbaho boyluk sifatida qaralsa, boshqa madaniy guruhda xuddi shu g'oya butunlay noma'lum. Bu yerda vaqt, masalan, daryoning yo'li yoki oqimi sifatida qabul qilinadi.

Ushbu ishning boshlang'ich nuqtasi ushbu birinchi jumalarda, ya'ni vaqtning metaforik shaklda tasvirlanishida allaqachon ko'rinib turibdi. Kundalik tilda ham, nasr va she'riyatda ham vaqt ko'pincha metafora qilinadi. Ushbu tadqiqotning asosi kolumbiyalik yozuvchi Gabriel Garsia Markes hisoblanib uning hikoyalarida vaqt tilning metaforik ishlatilishi sifatida tasvirlanadi. Muallif o'zining "tilning virtuoz qobiliyati" (Herrmann 1995: 10) asarida ko'rsatib bergan vaqtning tasviriy va xayoliy ifodalari va neologizmlari bilan mashhur. Shuning uchun uning ishidan foydalanishni o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi. Bundan tashqari yana ko'plab olimlar vaqt aslida nima ekanligi, uning mohiyati va aniq tasnifi haqida ilmiy izlanishlar qilganlar.

Vaqt metaforalarni batafsil tahlil qilish, vaqt mavzusi va u bilan bog'liq hayot va o'lim tasviri Kolumbiyalik Nobel mukofoti laureati ishida tez-tez takrorlanadigan motivdir va shuning uchun ham til, ham adabiy nuqtai nazardan qiziqarli tadqiqot yo'nalishini ifodalaydi.

Tilning lug'at boyligi asosan so'zlardan iborat. Lekin bu masala, ya'ni frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Metaforalar faqatgina kundalik hayotimizdagi kundalik nutqimizdagina qo'llanilib qolmasdan, balki badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topishi, ularning tilda o'ziga xos dolzarbliklar kasb etishini yaqqol namoyon etadi. Ushbu so'z birikmalarini chuqur tahlil qilishdan avval, so'z birikmasi tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. So'zlar tilda odatda alohida tarzda emas, balki erkin sintaktik birikma tarzida mavjud bo'ladi. Erkin sintaktik birikmalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik birlashuvidir. Bunday

sintaktik soʻz birikmalari semantik jihatdan analiz qilinishi mumkin. Barcha soʻz birikmalarining umumiy maʼnosi ularning komponentlari maʼnolarining birlashuvidan yuzaga keladi. Bunday soʻz birikmalari soʻzlashuv jarayonida yaratiladi. Erkin soʻz birikmasi qoʻllanish jarayonida oʻz maʼnosini yoʻqotishi va koʻchma maʼno hisobiga turgʻun birikmaga aylanishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nemis tilidagi “Raum” soʻzi mavhum jarayonlarni ifodalashda ishlatiladi. Die Zeit soʻzini Raum soʻzi bilan ishlatsak Zeitraum soʻzi hosil boʻlib maʼlum bir muddatni oʻz ichiga olgan holatni ifodalaydi.

Yanada tushunarli boʻlishi uchun quyidagi misollarni keltiramiz:

1. The meeting is at noon (uchrashuv peshinda)
2. To fall in love (sevib qolmoq) (Moiken Jessen/ Johan Blomberg/ Jorj Roxe – kognitiv lingvistika, 24)

Lakoff va Johnsonning nazariyasiga koʻra, at predlogi va fall feʼllari aslida fazoviy xususiyatga ega, hatto ular vaqt va hissiyotlar kabi boshqa soha soʻzlarini ifodalayotgan boʻlishsa ham. Mana shu narsa konseptual metaforada kategoriyalar orasidagi xaritalash deb ataladi (Lakoff & Johnson 1980).

Yana misol tariqasida, am (Sankt)Nimmerleinstag, wenn der Wuchs und der Hase einander Gute Nacht sagen, wenn Pfingsten und Ostern auf einen Tag fallen; bular turgʻun birikma hisoblanib, hechqachon deb tarjima qilinadi. Bu nemis iboralari oʻzbek tilidagi tuyani dumi yerga tekkanida yoki qizil qor yoqqanida iboralariga mos keladi. Yana bir misol: Die Zeit totschiagen birikmasida metafora ishlatilgan boʻlib, soʻzma-soʻz tarjima qilsak, vaqtni oʻldirmoq deb tarjima qilinadi. Lekin oʻzbek tilida vaqtni behuda sarflamoq, vaqtni bekor oʻtqazmoq degan maʼnoni anglatadi. Qolaversa, quyidagi turgʻun birikmalarni metofora hodisasiga misol tariqasida koʻrib chiqish mumkin: die Zeit vergeht, die Zeit fliesst, die Zeit läuft, die Zeit verfliegt;bu metoforalarda vaqtni suvdek tez oqib keishi yaʼni oʻtib ketishi yoki uchib ketishi, bir soʻz bilan aytganda vaqt juda tez oʻtadi degan maʼnoni tushunish mumkin. Bu birikmalar jumlar tarkibida oʻz maʼnosini yoʻqotib, koʻchma maʼno kasb etadi, turgʻun ibora sifatida qoʻllanadi.

Nemis tilida vaqt haqidagi maqollar ham talaygina. Bu maqollardan bir nechtasini quyida koʻrish mumkin:

Zeit ist Geld. Bu maqol nemis xalqi orasida juda mashxur va u Benjamin Franklin tomonidan aytilgan deb hisoblab kelinadi.

Ende gut, alles gut. Bu maqolni oʻzbek tiliga ohiri bahayr boʻlsin deb tarjima qilinadi.

Zeit ist das Feuer, in dem wir leben.

Die Zeit heilt alle Wunden. – Har bir narsaning davosi – vaqt.

Kommt Zeit, kommt Rat yoki Über Nacht kommt guter Rat. Ohirgi soʻzni vqt aytadi yoki vaqt oliy hakam.

Mann soll den Tag nicht vor dem Abend loben. – Jo'jani kuzda sana. Morgen, morgen, nicht nur heute, sagen alle faulen Leute.- Bugungi ishni ertaga qo'yma.

Besser spät als nie. – Hechdan ko'ra kech yaxshi.

Die Zeit ist der oberste Richter. Bu maqolni o'zbek tilida “ vaqt eng oliy hakam „ degan muqobil varianti mos keladi.

Frische Fische, gute Fische.- Qolgan ishga qor yog'ar yoki Morgenstunde hat Gold im Munde. Erta turgan kishini hudo o'nnglar ishini.

XULOSA

Ko'pgina nemis va o'zbek maqollari ma'no jihatidan yaqin va ular xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblanadi. So'z birikmalari ham so'zlar kabi lug'at boyligiga kiritilgan va tilning boyishiga xizmat qiladi. Turg'un so'z birikmalari ya'ni, frazeologizmlar mustahkam, o'zgarmas so'z gruppalari hisoblanadi va nutqda alohida so'zlarning ma'nosiga teng keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Рахманова, Д. А., Усмонходжаева, М. А., Санакулов, З. И., & Зарипова, Г. Ф.
2. (2020). НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИГИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ТИЗИМИ. *Science and education*, 1(8).
3. Муродқосимов, А., Рахманова, Д., Санакулов, З., & Зарипова, Г. (2020). Немис ва ўзбек тилларида сўз яшаш усуллари (композицион усул мисолида). *Academic Research in Educational Sciences*, 1(2), 241-248.
4. Rakhmanova, D., Zaripova, G., Rakhmatov, F., & Abdukhaliyeva, D. (2020). Nemis va ozbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi. *Science and education*, 1(8).
5. Rakhmatov, F. (2020). Tillarda zamon kategoriyasini umumiy-qiyosiy o'rganish. *Academic research in educational sciences*, (3).
6. Sanakulov, Z. I. (2020). The meaning of word formation in German and Uzbek languages (in comparative aspect). *Science and Education*, 1(Special Issue).